

O'ZBEK TILIDA ANTROPONIMLARNING LISONIY TADQIQI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7988539>

Nazarova Navbahor Ahrorovna

Bukhara State University, the teacher of the English linguistics department

nazarovanaavbahor2021@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada tilshunoslikning bir sohasi sifatida onomastikaning ahamiyati, onomastikada shaxs nomini tasniflashning o'ziga xos usullari va vositalari, shuningdek, turli atamalarning lisoniy tahliliga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar.

onomastika, onomastik ko'lam, onomastik birlik, onomastik lugat, onomastik termin, onomastik tizim, o'zbek onomastikasi, konversiya, onomastik konversiya, nomlaish tamoyili, so'z yasalishi, transpozitsiya, transformatsiya.

Abstract.

This article considers the value of onomastics as a branch of linguistics, specific methods and means of classifying a person's name in onomastics, as well as the linguistic analysis of various terms.

Key words.

onomastics, onomastics scope, onomastics unity, onomastics dictionary, onomastics term, onomastics system, Uzbek onomastics, conversion, onomastics conversion, word formation, transposition, transformation.

Аннотация.

В данной статье рассматривается значение ономастики как раздела языкознания, конкретные методы и средства классификации имени человека в ономастике, а также лингвистический анализ различных терминов.

Ключевые слова.

ономастика, объем ономастики, ономастическое единство, ономастический словарь, ономастический термин, ономастическая система, узбекская ономастика, конверсия, ономастическая конверсия, принцип именования, словообразование, транспозиция, трансформация.

Onomastika – yunoncha so'z bo'lib, "nom qo'yish san'ati" degan ma'noni anglatib, tilshunoslik sohasida u ma'lum bir tilda qo'llangan barcha atoqli otlarning yig'indisini va ularning shakllanishi, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Onomastikaning maqsadi tilshunoslikning dolzarb muammolarini, fan tarmoqlarining asosiy tushuncha va kategoriyalarini chuqur tadqiq etishdir. Nazariy onomastika onomastik birliklarning nutqda qo'llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi, ularning tarkibiy tuzilishi, til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo'lishi, nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o'zgarishlarini batafsil o'rganadi. Badiiy onomastikaning (onomopoetika)ning asosiy vazifasi badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etadi. Onomastika, shuningdek, atoqli nomlarning morfologik, fonetik, semantik, derivatsion (yasalish, shakllanish), etimologik kabi jihatlarini ham tilshunoslikning areal, qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullaridan foydalangan holda tahlil qiladi. Amaliy onomastika xorijiy tillarga tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, mansub nomlarning transliteratsiyasi, transkripsiyasi, an'anaviy (talaffuz va yozilishiga ko'ra), nom berish va nomlarni o'zlashtirish, xorijiy tillardan o'zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish masalalari bilan ham shug'ullanadi. Onomastika, bir qator fanlar jumladan, o'zbek onomastikasi adabiyotshunoslik, matnshunoslik, geografiya, tarix, etnografiya, genealogiya, geraldika, geologiya, astronomiya, demografiya bilan uzviy aloqador fan sanaladi.

"Onomastika" fani atoqli otlar, hozirgi zamon tilshunosligida ularning o'ziga xoslik muammolari, onomastik ko'lam, uning hajmi va mazmuni, onomastik birliklarni tadqiq etish metodlari, antroponimika, uning tarixi va asosiy taraqqiyot bosqichlari, toponimika, uning asosiy taraqqiyot bosqichlari, toponimikasining umumiy tavsifi, unda o'z va o'zlashgan qatlam elementlari, ideonimika, gidronimika, kosmonimika, etnonimika, zoonimika kabilarning rivojlanish bosqichlarini o'rganish muammolarini o'z ichiga oladi.

"Onomastika" fani atoqli nomlarni quyidagi guruh (bo'lim)larga ajratadi: *antroponimlar* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *zoonimlar* – hayvonlarga qo'yiladigan (shartli) atoqli nomlar, *kosmonimlar* – galaktikalar, fazoviy bo'shliq hududlari, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqatgan nomlari, *toponimlar* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiyalar* – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, laqablar, *mifonimlar*– xayoliyto'qima obyektlarning nomlari, *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari) , *astroponimlar* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuyini o'zida ifodalaydi.

Atoqli otlarning lisoniy xususiyatlarini o'rganilish darajasi quyidagi onomastik turlarga bo'linadi: *adabiy va dialektal, amaliy va poetik, zamonaviy va tarixiy, nazariy va amaliy*

Darhaqiqat, atoqli otlar tilning bebaho ma'naviy, madaniy va tarixiy merosidir. Ko'p asrlardan beri milliy va lisoniy boyligimiz sifatida o'zbek tilida antroponimlar tarkib topib, shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Bu onimik birliklarni asrash, uning qatorini yangi nomlar bilan to'ldirib borish, ilmiy asoslab o'rganish muhim vazifadir. Hozirgi davrda atoqli otlarning milliyligi, tabiiyligini saqlash, til qonuniyatlariga mosligini belgilash asosiy majburiyat deb bilish, shuningdek, tilshunoslik fanida yangi nomlarning paydo bo'lishi, ularni izchil va aniq bir tizim sifatida o'rganish zaruriy masalalardan biridir.

"Onomastika" fanining yana bir asosiy vazifasi mazkur sohaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o'rganish metodlaridan iboratdir. Shunisi aniqki, tilshunoslikda barcha atoqli otlar yig'indisini o'zida ifodalaydigan, har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi onomastika hisoblanadi.

Darhaqiqat, ismlar tarixi- millat tarixi, u butun insoniyatning uzoq o'tmishdan to hozirgi kunlargacha bosib o'tgan hayot yo'lini, avloddan avlodga meros qoluvchi, doimo rivojlanib, boyib boruvchi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy, qurilishi sohalarini o'rganadi. "Onomastika" fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

Onomastikada onomastik konversiya deb ataluvchi nom yasash usuli deb e'tirof etib kelinayotgan hodisa borki, unga "o'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati"da "onomastik konversiya/onomastik konversiya usuli - apellyativ leksikaning hech qanday yasovchi vositasiz atoqli ot vazifasiga o'tishi" deb ta'rif beriladi.²⁸⁴ Har qanday atoqli otning hosil bo'lish sababi bilan bog'liq ensiklopedik-etnografik ma'no ham mujassam. Shuning sababli, har qanday so'zning atoqli otga ko'chishi semantik yasash yoki onomastik konversiya usulida yasash deb yuritib kelingan. A.Hojiyev bu xildagi hodisalar haqida: "So'z yasashining leksik-semantik", "morfologik-sintaktik" usullari deb ta'riflanayotgan "usullarida ham so'zning biror sabab tufayli yuzaga kelish hodisasi bor, lekin so'z yasash hodisasi yo'q"²⁸⁵, deydi, chunki bu jarayon onomasiologiya bilan chambarchas bog'liq.

Sistemaviy leksikologik tadqiqotlar tilning lug'at tizimi pog'onaviy va tizimli qurilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunda har bir bo'g'in markaz va qurshovdan iborat bo'lib, bo'g'inning markazi bir so'zdan tuzilgan bo'lib, uning birinchi,

²⁸⁴ Дўсимов З. Изучение лингвистических особенностей географических названий. Ташкент, 1989, с.28.

²⁸⁵ Ҳожиёв А.П. Ўзбек тили сўз ясаши тизими. Тошкент, "Ўқитувчи", 2007, 8-бет.

ikkinchi, uchuinchi qurshovlari: sinonimik, graduonimik va boshqa qatorlardan tashkil topgan bo'ladi, ularning barchasi yangi leksemalar bilan to'ldirilishi mumkin. Qurshov leksemalarining miqdori so'zlovchining sohani bilish darajasi bilan belgilanadi. Leksikologlar leksik tizimning istagan bo'g'inida nutqiy ehtiyoj uchun eng zaruriy vosita shu bo'g'inning markazida turuvchi leksemdir degan g'oyani ilgari surishdi. Nutqni go'zallashtirish, fikrni aniq ifodalash kabi vazifalarni esa qolgan qurshov leksemalarining ikkilamchi vazifalari hisoblanadi.

Nomlar ham tabiatan markaziy leksemaning mana shunday eng chekka qurshov leksemalari tabiatiga egadir. Nomlar o'zbek tili leksikasining umumijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan keng iste'mol so'zlari sirasida emas, ular alohida shaxsning xususiy leksikasida katta mavqe va ahamiyatga molikdir. Metodologik ahamiyatga ega bo'lgan lison va nutq ixtilofi bilan to'qnashadi. Chunki lison umumijtimoiy tabiatga, nutq esa shaxsiy ijtimoiy qimmatga egadir. Lison qonuniyati biron narsaning nutqda yashashi va voqelanishi uchun lisoniy tizimda o'z o'rniga ega bo'lishi joiz. O'zbek tili leksikasida nomlarning qanday imkoniyati borki, ular har bir muayyan shaxs lug'at boyligida eng faol so'zlardan bir guruhining tashkil etadi? Bunday imkoniyat o'zbek tilida har bir soha nomlari uchun alohidadir.

Bir qator tilshunoslar tadqiqot ishlarida atoqli otlarni o'rganishda "odam" tushunchasining tilda ifodalanishi va odam leksemasining qurshovlari ustida ancha mufassal fikrlar yuritishgan.

Kishini (shaxs) atash usullari va tavsiflash yo'llari o'zbek tilida ancha mukammal tahlil qilingan.²⁸⁶ Shulardan shaxsni atash, nomlash usullaridan bir qisminigina ko'rib o'tamiz.

1. Jinsga ko'ra: erkak-ayol, bobo-kampir, qiz-o'g'il
2. Qarindoshligiga ko'ra: tog'a-amma, ota-ona
3. Yoshiga ko'ra: chaqaloq, go'dak, bola, yigit
4. Millatiga ko'ra: o'zbek, qozoq, arab, tojik, qirg'iz, rus
5. Turar joyiga ko'ra: namanganlik, farg'onalik, buxorolik, xorazmlik, navoiylik, samarqandlik, jizzaxlik, andijonlik
6. Kasb-koriga ko'ra: tikuvchi, quruvchi, ovchi, baliqchi, traktorchi
7. Gavda tuzilishiga ko'ra: semiz, qiltiriq, baqaloq, novcha, pakana, qotma
8. Fe'l-atvoriga ko'ra: ayyor, badjahl, tajovuzkor, muloyim, xushfe'l
9. Ayrim xususiyatiga ko'ra: nozikbadan, bo'tako'z, xipchabel, shalpanquloq, do'ngpeshana, baroqqosh, sepkilyuz

²⁸⁶ Нарзиева М. Қон-қариндошлик номларининг компонент таҳлили // Ўзбек тили ва адабиёти. 1986, 5-сон. – Б.47-48. 18 O'QUV QO'LLANMA

10. Ayrim uzv(a'zo)laridagi kamchiligiga ko'ra: oqsoq, cho'loq, ko'r, kar, soqov, gung, kaltapocha

11. Xatti-harakatiga ko'ra: qo'rs, o'jar, qashshang, muloyim, badjahl, serjahl.

Shaxsni atashdagi bu imkoniyatlarning hammasini birma-bir sanab chiqish mumkin emas. Ular barchasi shaxsni atashdagi lisoniy usul, vositalar bo'lib, antroponimikada bulardan keng va o'rinli foydalaniladi. Nomlar, jumladan, antroponimlar o'zbek lisoniy tizimida "odam" leksemasining alohida bir qurshovini tashkil etadi.

Antroponimlar tilning lug'at tizimida eng chekka qurshov sifatida mavjud bo'lsa ham, ular tilning qurilish tizimida o'ziga xos o'ringa ega. Shu sababli ham antroponimlar deyarli barcha lug'atlardan o'rin egallagan. Antroponimlar turkiy asar hisoblangan Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk"idan boshlab "O'zbek tilining izohli lug'ati" gacha bo'lgan lug'atlarning ko'pchiligidan joy olib kelmoqda.

Shunday qilib, o'zbek tilshunosligida atoqli otlarda lug'at boylik tizimida umumijtimoiy xarakter emas balki ko'proq shaxsiy ijtimoiy tabiat mujassam. Antroponimlar lug'aviy boylikning eng chekkasidan o'ringa ega bo'lsa ham, shaxs nutqida faol leksik boylik sifatida qo'llanilaveradi, shu sababli, umumijtimoiy-lisoniy bosqichda antroponim har bir shaxs uchun xususiy va shaxsiy hisoblangan chekka va eng zarur lisoniy bo'sh qurshovini tashkil etadi. Leksik tizimning istagan bo'g'inida nutqiy ehtiyoj uchun eng zaruriy vosita shu bo'g'inning markazida turuvchi leksemdir. Qurshov leksemalarining qolganlari esa ikkilamchi vazifalarni - nutqni go'zallashtirish, fikrni aniq ifodalash, qaytariqlardan qochish kabi vazifalarni bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Izomovich, R. Z., & Fazliddinovna, U. D. (2021). The Problems of Second Language Acquisition and Writing in Teaching English Language. "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM, 229-233.

2. Nazarova, N. (2022). Antroponimlarning o'rganilishi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 110- 112

3. Nazarova, N. (2023). ONIMIK LEKSEMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI . ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 34(34).

ИЗВЛЕЧЕНО

ОТ

https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9709

4. Ahrorovna, N. N. ., & Niginabonu, Y. . (2022). English Clubs in Non - Traditional Ways for Young Learners. *Miasto Przyszłości*, 30, 265-266. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/912>
5. Nazarova, N. (2023). BASES OF THE THEORETICAL STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR CHARACTERISTICS. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 31(31). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9285
6. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Muhiddinova Marjona. (2023). INTERFAOL TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 179-185. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/3920>
7. Nazarova Navbahor Ahrorovna, & Akhmedova Marjona Rashidovna. (2023). DIFFERENCES BETWEEN AMERICAN AND BRITISH ENGLISH. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 156-161. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/3909>
8. Nazarova Navbahor Ahrorovna. (2023). ANTROPONIMLAR TILSHUNOS OLIMLAR TADQIQIDA. *International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers*, 11(2), 400-405. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7644149>
9. Ahrorovna, N. N., & Shaxribonu, A. (2022, January). Chet tilini o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanishning ahamiyati. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 116-118).
10. Nazarova, N. A. (2022). STUDY OF ANTHROPONYMS AND THEIR PLACES IN THE LEXICAL SYSTEM (In *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, Volume 3, Issue 1, pp. 90-96).
11. Djalilova, Z. (2022). ОПИСАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОБРАЗА ПОСТРЕДСТВОМ ЦВЕТОВ В АНГЛИЙСКОЙ ПОЭЗИИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 26(26). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8567